

ISTIQLOL YILLARI O'ZBEK SHE'RIYATIDA "BADIY SHAKL" TUSHUNCHASI VA UNING TASNIFI

TOSHEVA DILOROM SALIMOVNA,

IIV Buxoro akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik davri o'zbek adabiyotida kechgan shakliy-uslubiy izlanishlar, ularning badiiy-estetik omillari, o'zbek mumtoz adabiyoti va jahon she'riyati ta'sirida yangilanayotgan she'riyatning muhim xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan. Adabiy janr va badiiy shaklning bir-biridan farqi qator ilmiy manbalar, dalillar yordamida ko'rsatilgan. Keyingi yillar o'zbek adabiyotida badiiy shakliy izlanishlar olib borgan ijodkorlar ijodi, ularning o'ziga xos jihatlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: badiiy shakl, uslubiy izlanish, janr, ko'rinish, keng va tor ma'no, adabiy qolip, tasbeh, uchchanoq, fiqra, sintetik she'riy shakl, художественная форма, individual eksperiment.

Keyingi yillar o'zbek she'riyatida mumtoz va jahon she'riyati ta'sirida qator badiiy shakllar yuzaga keldi. Adabiy janrlardan farq qiluvchi bunday badiiy shakllar keyingi yillar o'zbek she'riyatining katta qismini tashkil qilmoqda. Badiiy shakl va janr bitta nazariy hodisa emas. Aslida avval badiiy shakl yuzaga keladi. Agar bu shakl bir necha shoir ijodida takrorlansa, u janrga aylanadi. Janr esa o'zining tabiatiga, qat'iy belgilariga ega bo'ladi. Badiiy shakl shu jihatdan janr paydo bo'lishiga asos bo'ladi.

Jahon va mumtoz she'riyat ta'sirida yuzaga kelgan, faqat bir shoir ijodiy izlanishlari samarasi bo'lgan badiiyat hodisasi badiiy shakl deyiladi. Rus adabiyotshunosligida "художественная форма" deb yuritiladigan bu termin janr shaklanishi uchun asos bo'ladi.

Badiiy shakl nazariyasi rus adabiyotshunosligida ancha keng ishlangan. Jumladan, "Badiiy shakl (lot. forma – ko'rinish, tasvir) – badiiy mazmunni, uning tarkibiy ifodasini o'zida mujassamlashtiruvchi vositalar va usullar majmui" [1]. Haqiqatan ham, badiiy shakl ijodkorning g'oyaviy niyatini yuzaga chiqaruvchi, mazmunni ifoda etuvchi vositadir.

Y.Mukarjovskiy fikricha: a) badiiy texnika; b) asarning barcha unsurlari va qismlarining o‘ziga xos uyg‘unligi; v) badiiy ijodning ichki, immanent qonuniyatlarga muvofiq rivojlanishi badiiy shaklni tashkil etadi [1]. Olimning badiiy shakl haqidagi ikkinchi tasnifi she’riyatdagi badiiy shakl izlanishlariga muvofiq keladi. Ya’ni asarning barcha unsurlari va qismlarining o‘ziga xos uyg‘unligi badiiy shaklni yuzaga keltiradi va uning badiiy ijodda namoyon bo‘lishi esa janr tomonga yo‘l ochadi. “Badiiy shakl (lot. forma – tashqi ko‘rinish) – keng ma’noda badiiy mazmunning tuzilishi, tashkil etilishi, tashqi ifodasi; tor ma’noda, alohida asarda (yaxlit badiiy shakl) birlikka olib kelingan badiiy vositalar yig‘indisi”dir [2]. Darhaqiqat, badiiy shakl ijodkor tomonidan kashf etiladi. Shu jihatdan yaxlitlik kasb etgan badiiy butunlikni ifoda etadi. Bunda terminning tor ma’nosи muayyan ijodkorning shakliy izalanishlarini aks ettiradi. Biz ham “badiiy shakl” atamasini xuddi shu tor ma’noda qo‘llaymiz. Boshqa bir o‘rinda “Badiiy shakl – badiiy asarning konstruktiv birligini, uning betakror yaxlitligini bildiruvchi tushuncha. Arxitektura, musiqa va boshqa shakllar tushunchalarini o‘z ichiga oladi” [2], deb keltirilgan. Binobarin, badiiy asarning konstruktiv birligi, betakror yaxlitligi badiiy shaklni belgilovchi muhim xususiyatlardir. Gegelning fikricha, badiiy g‘oya o‘z shaklini erkin yaratadi, badiiy asarlarda g‘oya mazmuni va uning timsoli bir-biri bilan mukammal uyg‘unlikda bo‘ladi [2]. Zero, har bir ijodkor poetik fikrni badiiy ifoda etuvchi shaklni o‘zi tanlaydi, o‘zi yaratadi. M.Baxtinning fikricha, badiiy shakl mazmunga yetaklovchi ko‘prikdir. Badiiy asar yaxlit butunlik bo‘lib, uning elementlari ana shu yaxlitlikning bir qismi sifatida o‘z mazmunini oladi. Badiiy shakl insonning voqelikni idrok etish qonunlari va shartlariga ham mos kelishi kerak [2]. Nazariyotchi olimning badiiy shaklga bergen ta’rifi asosli: badiiy shakl mazmunga yetaklovchi ko‘prikdir. Bu metaforik o‘xshatish ilmiy mohiyatga ega. Biroq ijodkor tomonidan tanlangan badiiy shakl insonning voqelikni idrok etishiga muvofiq bo‘lishi kerak.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham badiiy shakl borasida bir qator ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Jumladan, she’rshunoslik masalalari bilan shug‘ullangan Jamol Kamol bu haqda yozadi: “Lirikamizning bugungi janr qiyofasini ko‘proq qandaydir qorishiq, “sof janr” talablaridan xoli, “universal”, sintetik she’riy shakl belgilamoqda. V.G.Belinskiyning “davr g‘oyalari bo‘lganidek, davr shakllari ham bo‘ladi” degan chuqur mazmunli fikrini xotirga olsak, manzara tag‘in ham oydinlashadi. Shu ma’noda lirikamizdagи hozirgi hukmron qorishiq janrni davrning she’riy shakli deb tavsif qilish mumkin” [3, 11]. Ko‘rinadiki, Jamol

Kamol bunda ulug‘ rus tanqidchisi V.G.Belinskiy qarashlariga tayanib, har bir shoir ijodida kechgan badiiy shakl izlanishlarini nazarda tutgan. Qolaversa, turli lirik janrlar ta’sirida muayyan shoir ijodida bo‘y ko‘rsatgan bunday izlanishlarda u qorishiqlikni ko‘radi.

Adabiyotshunos T.Boboyev yozadi: “Mumtoz she’riyatimizdagi (aruzda yaratilgan) lirik she’rlarning janr xususiyatlarini aniqlash hozirgi zamon poeziyasida (barmoqda yozilgan) lirik she’rlarning janr xususiyatlarini aniqlashga nisbatan ancha oson va qulayroqdir. Chunki poetik janrlar klassikada qat’iy norma va andozaga ega bo‘lgan. Ammo hozirgi lirik she’riyatimizda, xususan, barmoq tizimida yozilgan she’rlarda bunday poetik qolip u qadar sezilmaydi. Shunga ko‘ra barmoqda yaratilgan lirik she’rlarning janr xususiyatlarini aniqlash murakkabroq masaladir” [4, 503]. Darhaqiqat, barmoq vaznidagi she’rlarda poetik qolipning u qadar sezilmasligi badiiy shaklni ifoda etadi. Adabiyotshunos E.Xudoyberdiyev esa: “... hozirgi shiddatkor ijtimoiy hayotning mazmunini, ruhini chuqurroq, ta’sirchanroq yoritishga imkon beruvchi yangi zamonaviy she’riy shakl va janrlar paydo bo‘ldi” [5, 221], – deb yozadi. Demak, badiiy shakllarning xilma-xilligini shiddatkor zamonning o‘zi taqozo qilgan. Jumladan, J.Kamolning “taronalar”, A.Obijonning “g‘azalsimonlar”, “so‘taruboiylar”, “to‘rtqavatlilar”, “ikkiqatlar”, F.Afro‘zning “tasbehlar”, U.Qo‘chqorning “muqarnaslar” nomi bilan berilgan she’riy izlanishlarini ana shunday badiiy shakl namunalari sifatida ko‘rsatish mumkin. Olimning nazariy qarashlari yana bir jihatdan e’tiborli: “yangi zamonaviy she’riy shakl va janrlar” – der ekan, shaklning janrgacha bo‘lgan ijodiy jarayon ekanligini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Binobarin: “Yangilik yaratolmagan shoir novator bo‘la olmaydi. Yangiliksiz an’ana yo‘q, an’anasiz yangilik yo‘q” [5, 222].

Taniqli nazariyotchi olim D.Quronov qarashlari bu jihatdan diqqatni tortadi. U she’riy janrlarni beshga bo‘ladi va beshinchisi sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: 5) individual ijodiy eksperiment tarzida maydonga kelgan janrlar: qayirma (A.Suyun), ignabarg, uchchanoq (A.Obidjon), fiqra (F.Afro‘z) va b. Avvalo, bu tasnifning mukammallik da’vosidan yiroq ekanini aytish lozim. Zero, “janrlar (adabiy turlardan farqli o‘laroq) tizimga solish va tasniflashga qiyinlik bilan bo‘y beradi, bunga o‘rlik bilan qarshi turadi”. Ikkinchidan, mazkur tasnifdagi janrlarning aksariyati zamondosh shoirlarimiz tomonidan, passiv bo‘lsa ham qo‘llanadi. Biroq, tabiiyki, hozirgi she’riyat uchun ularning ayrimlari an’anaviy, boshqa birlari o‘zlashma, tag‘in birlari esa hali ijodiy tajriba qozonida qaynab turibdi. O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: hozirgi she’riyatning «o‘z» janrlari ham bormi?” [6, 391]. Binobarin, qayirma

(A.Suyun), ignabarg, uchchanoq (A.Obidjon), fiqra (F.Afro‘z) bugungi she’riyatning an’ana va novatorlik uyg‘unlashgan yangi shakllaridir. Chunki ular “individual ijodiy eksperiment tarzida maydonga kelgan”. Ularni janr deb bo‘lmaydi. Chunki fiqra faqat Farida Afro‘zda, uchchanoq faqat Anvar Obidjonda bor. Olim bu boradagi fikrlarini davom ettirib, yozadi: “I.Sulton mumtoz she’riyatimiz janrlariga to‘xtalgach, ular “hozirgi zamon poeziyasida uchrasa ham, poetik mahsulotni bunday xillarga bo‘lish rasm emas”, deydi. Olimning uqtirishicha, «... she’riy shaklda yozilgan har qanday asar she’r nomi bilan ataladi. Har bir lirika asari dastavval she’rdir, undan keyin ma’lum bir janrga (g‘azal, ruboiy, doston, poema, qo’shiq va hokazolarga) mansub asardir»[6, 391]. Bunda D.Quronov otaxon adabiyotshunos I.Sulton bilan bahsga kirishadi. Olimning hozirgi she’riyat janrlarini tasniflashga hojat yo‘qligi haqidagi qarashlarini ma’qullamaydi: “E’tibor berilsa, I.Sulton aytgan «she’r» so‘zi universal ma’no kasb etayotirki, bu hozirgi she’riyatda yagona – «lirik she’r» nomli janr mavjud degan qarashni eslatadi. Umuman, «poetik qolip sezilmaydigan» bo‘lgach, «janrlar saqlanib qoladimi yoki yo‘qolib ketadimi?» savoli qo‘yilishi tabiiy” [6, 391]. Ikki jildli «Adabiyot nazariyasi»da ham shu savol qo‘yilgan-da, yo‘q, «she’riyatimizda hozir ham ayrim janrlar yashab turibdi» deya javob berilgan. Ayni chog‘da, «Lirkamizning bugungi janr qiyofasini ko‘proq qandaydir qorishiq, eski, «sof janr» talablaridan xoli, «universal», sintetik she’riy shakl belgilamoqda» [7, 267], deb ta’kidlanadi. “...lirik asarlarni janrlarga ajratishda shakl xususiyatlaridan, aniqrog‘i, ko‘zga yaqqol tashlanadigan tashqi shakliy belgilardan kelib chiqish, demakki, janrni qat’iy anqlikda tavsiflash ham, muayyan she’rni shunday qat’iylik bilan u yoki bu janrga mansub etish ham imkondan tashqaridagi ishga aylanib qoldi” [6, 391]. Zero, muayyan she’riy asar qaysidir janrga mansubligini uning tabiatidan, qat’iy belgilaridan aniqlash va ularni tasniflash mumkin bo‘ladi. Demak, yangi she’riyatda kechgan bunday transformatsion o‘zgarishlarga nisbatan “universal, sintetik shakl” termini qo‘llanganki, bu fikrga qo‘shilish mumkin.

Umuman olganda, D.Quronov bugungi jarayonda kechayotgan bu ijodiy izlanishlarni “...individual ijodiy eksperiment tarzida maydonga kelgan janrlar” deya baholaydiki, bu biz tadqiq etayotganimiz badiiy shakl izlanishlarini aks ettiradi.

Bugungi adabiyotning faol kuzatuvchilaridan bo‘lgan olim J.Eshonqul fikrlari ham badiiy tafakkurdagi yangilanishlarni ifoda etadi: “Adabiyot har doim tilning, adabiy janrlarning ichki imkoniyatlari barobarida tashqi – o‘zga adabiyotlar orttirgan tajriba bilan

chog‘ishtirib, sintez qilish orqali rivojlanadi, uning sarhadlarini kengaytirib boradi... Bugungi milliy adabiyotimizdagi izlanishlar, istaysizmi, yo‘qmi, o‘z zaminiga tayanadi, chetdan ta’sirlanish orqali adabiy tafakkur imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi, uning chegaralarini mavhumlik, mutlaqo yangicha kodlashlar – ramzlar sari surib boradi. Yangi asarlar yaratilishiga maydon hozirlaydi [8]. Istiqlol davri she’riyatida kechgan o‘zgarishlarni “o‘zga adabiyotlar ta’sirida orttirilgan tajriba”, “sintez” mahsuli deb baholash mumkin bo‘ladi.

XX asrning so‘nggi choragi XXI asr boshlari o‘zbek she’riyatida shakl va mazmun o‘zgarishlari sezilarli ijodiy jarayonga aylandi. “Natijada she’riyatimiz asrlar davomida amal qilib kelingan poetik kanonlarni inkor qilib, o‘zgargan mazmun-mohiyatga mos yangi shakl bobida izlanishlar davriga kirdi. Bu izlanishlarning eng muhim va she’riyatimizda tub yangilanishga olib kelgan yo‘nalishlari sifatida she’rning ritmik-intonastion sathida, poetik ifoda yo‘sini va subyektiv tashkillanishdagi o‘zgarishlarni ko‘rsatish mumkin” [9, 274]. Avval milliy o‘zlikni anglash, o‘z fikrini ifoda qilish shaklida kechgan jarayon, keyinchalik yangi fikr aytish maqsadida o‘ziga xos shakl va ifoda topishga urinish, yangi janrlar yuzaga kelishi kabi hodisalar bilan kuchayib, adabiyotimiz, xususan, she’riyatimizdagi rang-baranglikni ta’minladi. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati tafakkur yo‘nalishlari o‘zgacha bo‘lgan ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida dunyoga kelgan hodisa o‘laroq bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu davr adabiyotida ijod erkinligiga sharoit yaratildi, ommani ko‘rsatishga emas, shaxsni tadqiq etishga yo‘naltirildi. Mustaqillik davri adabiyoti chinakamiga xilma-xil adabiyotga aylandi. Unda tajriba qilish, sinab ko‘rish, ochilmagan yo‘llardan yurish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu hol birovga o‘xshamaydigan, o‘zgalarni takrorlashga intilmaydigan, o‘ziga xos iste’dodlarning ko‘payishiga imkon yaratdi. Zero, “badiiy ijod tabiatni mazmunan o‘zgarar ekan, u o‘ziga xos shakl, obrazlar olami va ifodaga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun hamisha yangi janrlar vujudga kelgan, takomillashgan yoxud iste’moldan chiqqan. Ayni paytda, har bir alohida janr tabiatida muttasil sifat o‘zgarishi ortib borar ekan, muayyan janr an’anaviy kanonlari haqida gapirish o‘rinsizdir. Zotan, janr xususiyatlari konkret asar va uning tabiatiga ko‘ra namoyon bo‘ladi” [10, 110]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijodkorlarning izlanishlari natijasida o‘zbek she’riyatida birlik, ikkilik, uchlik, otilik poetik shakllari yuzaga keldi, sonet janri rivojlandi. Ular o‘zbek mumtoz adabiyoti va jahon adabiyoti yutuqlari bilan boyitilgan holda zamonaviy shoirlar

ijodidan o‘rin oldi. Binobarin, taniqli she’rshunos olim N.Rahimjonov ta’kidlaganiday: “An’anaviy janrlardan tashqari yana mavzu problemalariga ko‘ra tavsiflanuvchi ijtimoiy-siyosiy, peyzaj, ishq-muhabbat lirikasi yo‘nalishida, sonet, ikkilik-fard, uchlik-xokku, tanka, oktava, beshlik, otilik, sakkizlik singari poetik janr va shakllarda ham e’tiborli izlanishlar jarayoni kechmoqda” [11, 66].

Adabiyotshunos N.Jabborov ham “Zamon. Mezon. She’riyat” nomli kitobida xuddi shu jihatlarga alohida e’tibor qaratadi. Ya’ni zamonaviy mavzularni ko‘hna aruzda ifodalashga intilish, she’riyatda xalqona ohanglarga ehtiyojning ortishi, poetik shakldagi yangilanish, poetik obrazlardagi yangilanish tarzida asoslab beradi. “Bugun she’riyatda yangidan yangi nazmiy shakllarga rag‘bat ko‘rsatilmoqda. Uchlik, beshlik (tabiiyki, bu beshlik muxammas emas!), hatto geometrik shakllar ham she’riyatga dadil kirib kelayotir” [12, 57]. Haqiqatan, keyingi yillar o‘zbek she’riyatida Anvar Obidjon “ignabarg”, “uchchanoq”, “uchpaxsa”, Farida Afro‘zning “fiqra”, “tasbeh”, Isroil Subhoniyning “Shashqator” deb nomlanuvchi birlik, ikkilik, uchlik, otilik singari badiiy shakllar yuzaga keldi, yangicha ko‘rinishdagi sonetlar yaratildi. Usmon Azim “qayirma” deb ataluvchi adabiy shaklning ham nasriy, ham she’riy namunalarini yaratdi. Shu bilan birga R.Parfi, Eshqobil Shukurning uchlik bandlardan tashkil topgan mumtoz adabiyotdagi musallas, jahon she’riyatidagi terset, tersina janrlariga uyg‘un she’rlar yaratildi. Binobarin, bunda uchlik-xokku-terset-tersina-musallas, ikkilik-fard-masnaviy, musaddas-otilik tizimida o‘zgarishlarni qiyosiy o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi. Shundan kelib chiqib, keyingi yillar o‘zbek she’riyatida yuzaga kelgan yangilanishlarning badiiy-estetik omillarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Jalon she’riyatining badiiy estetik tajribalari.
2. O‘zbek mumtoz she’riyati an’analari.

Zamonaviy she’riyatimizda yuz ko‘rsatgan birlik, ikkilik, uchlik shakllarini H.Umurov, Q.Yulchiyev singari olimlar poetik janr sifatida talqin qilishgan. Jumladan, H.Umurov uchliklarni falsafiy-adabiy janr deya baholaydi [13, 4]. Q.Yulchiyev ham birlik va uchliklarni janr sifatida talqin etadi [14, 23]. Janr talablari qat’iy bo‘lganidan biz birlik, ikkilik, uchlik kabilarni badiiy shakl sifatida talqin etish yo‘lidan boramiz.

Shu jihatdan so‘nggi yillar o‘zbek she’riyatida ham badiiy shakl izlanishlari kechdi va bu jarayon natijasida poeziyada nafaqat uslubiy, balki sifat o‘zgarishlari yuzaga keldi.

Keyingi yillar o‘zbek she’riyatidagi bu transformatsion jarayonlarni ikkiga bo‘lib tasnif etish mumkin:

1. O‘zbek mumtoz she’riyati ta’sirida yuzaga kelgan badiiy shakllar (ikkilik, uchchanoq, uchpaxsa, g‘azalsimonlar, chorzarb, shashqator, beshnavo, to‘rtqavatlilar, tarona, muqarnas).
2. Juhon she’riyati asosida yuzaga kelgan badiiy shakllar (birlik, ignabarg, o‘rtabarmoq, tasbeh, geometrik shakl, sonetlar gulchambari).

Ko‘rinadiki, so‘nggi yillar o‘zbek she’riyatidagi shakliy-uslubiy yangilanishlarning asosiy omillari o‘zbek mumtoz she’riyati va jahon she’riyati badiiy-estetik tajribalaridan o‘rganishda namoyon bo‘lgan. Mustaqillik davri o‘zbek nasriga salmoqli hissa qo‘sghan yozuvchi, adabiyotshunos olim Ulug‘bek Hamdam bugungi o‘zbek she’riyati haqida fikr yuritar ekan, shunday deydi: “Nazdimda, hozirgi o‘zbek she’riyati ifoda usuliga ko‘ra taxminan quyidagicha ko‘rinishga ega: an’anaviy; xalqona (folklor an’analari doxil); modern; aruz; sinkretik. Ammo ta’kidlash joizki, dunyoni estetik-badiiy talqini bobida asosan ikkita kuchning musobaqasini kuzatish mumkin: bu an’anaviy va modern oqimlar o‘rtasidagi bellashuv” [15]. Darhaqiqat, mana shu modern yo‘nalishi nafaqat badiiy tafakkurning, balki shoir hissiyotlarining tajassumi bo‘lgan adabiy shaklning ham yangilanishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek she’riyatida mumtoz she’riyat ta’sirida birlik, ikkilik, uchlik, beshlik, oltilik singari badiiy shakllar yuzaga keldi. Juhon she’riyatidagi xokku, tanka, tertset, tersina singari janrlardagi asarlardan ta’sirlanish, jahon she’riyatidagi sonet janrini milliylashtirish natijasida esa xuddi shunday asarlar yozilishiga zamin yaratdi. Bu, albatta, zamonaviy o‘zbek shoirlarining o‘zbek mumtoz she’riyati an’analarini davom ettirishi va jahon she’riyati yutuqlarini adabiyotga olib kirishida namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://ponjatija.ru/node/886>
2. <https://terme.ru/termin/forma-hudozhestvennaja.html>
3. Жамол К. Лирикада жанрлар масаласи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1976, №6.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: O‘zbekiston, 2002. – B.503.
5. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т.: Шарқ, 2008.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: Navoiy universiteti, 2018.
7. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 2-т. – Т.: Фан, 1979.

8. Тасаввурнинг синиқ кўзгуси. Фольклоршунос олим Жаббор Эшонқул билан шоир Фахриёр гурунги. *Yoshlik*, 2018. №1.
9. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти: Илмий мақолалар. – Тошкент: Adib, 2012.
10. Ёкубов И. Китобда: Истиқлол.Адабиёт.Танқид... – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.
11. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. Тошкент:Фан, 2007.
12. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. Тошкент, F.ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 2015.
13. Umurov H. "Uchlik"larning sizga atalgan saboqlari. –Toshkent, 2018.
14. Юлчиев Қ. Ўзбек шеъриятида бирлик ва учлик поэтикаси. PhD диссертацияси. Тошкент, 2017.
15. Hamdam U. Erkin badiiy tafakkur va bugungi o'zbek she'riyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2013-yil, 48-son.
16. Улуғов А. Қалб қандили. –Тошкент, 2015.